

PEDAGOGIK FAOLIYATDA NUTQ MADANIYATI VA IMIJNING UYG'UNLIGI**Yusufova Dilrabo Yusuf qizi****Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti****1-kurs doktoranti****dilsururi@mail.ru****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8081611>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchilik faoliyatida unga yordamchi vositalar, xususan, nutq madaniyati: so'z qo'llash mahorati, undan to'g'ri foydalanish yo'l-yo'riqlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, nutq madaniyati, imij, notiqlik, madaniyat.

Ta'lim jarayonining sifatini oshirish, bugungi davr talabiga mos, jahon bozorida raqabatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish uchun keng qamrovli ishlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Ta'lim muassasasi o'qituvchisi zamondan bir qadam oldinda yurishi, ertangi kunning talablarini oldindan his qilishi va shogirdlarni ham orqasidan ergashtira olishi lozim. Professor-o'qituvchilar bor kuch-qudrati, imkoniyati va vaqtini o'z ustida ishlashga, bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirishga yo'naltira olsagina zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashga erisha oladi. Qachonki pedagogning jamiyatdagi mavqeyi ko'tarilsa, u moddiy farovonlikka erishsa butun borlig'ini kasbiga baxshida qila oladi.

Mashaqqatli kasb egalari bo'lgan o'qituvchilar ham o'quvchilar bilan munosabatga kirishar ekan, avvalo bolalarni bilim olishga ishon tirishi, undashi lozim. O'quvchini ishon tirish uchun, avvalo, pedagogda o'ziga nisbatan ishon ch bo'lishi darkor. Mashhur yunon notiqi Sitseron ham o'zining "Notiqlik san'ati" kitobida "O'ziga bo'lgan ishon chning mavjudligi ulkan boylikdir"[1:60], deya e'tirof etgan. Pedagogning ishon chli gapirishi, nutqi ravon, tushunarli, chiroyli dalillangan, puxta asoslangan bo'lishi, shuningdek, bu so'zlarga albatta o'zi ham rioya qilishi uning imijiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Sababi pedagogik faoliyatdagi nutqiy muloqot – o'qituvchi va o'quvchi orasidagi axborot almashuv jarayoni bo'lib, u nafaqat lisoniy, balki ruhiyat bilan ham bog'liq hodisadir. Pedagogik muloqot oddiy axborot almashish hodisasi emas, balki ma'rifiy-didaktik ruhda shakllantirilgan, nafasat va nazokatga yo'g'rilgan muomala ko'rinishidir.

O'qituvchi imiji haqida fikr yuritar ekanmiz, ko'pchiligimiz bu soha vakilining yuksak fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligi, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan bilimdonligi, ilmiy va ijodiy dunyoqarashining kengligi, yoshlarga, atrofidagi insonlarga nisbatan muhabbati, pedagogik jihatdan o'z-o'zini rivojlantirishga intilishning mavjudligi, shaxsiga va boshqalarga nisbatan talabchanligi, qat'iyatligi, umumiy pedagogik madaniyati va etikasi yuqori bo'lgan hamda yuqori kasb mahorat egasi bo'lishi lozim, deb tushunamiz. Mana shu jihatlarni barchasini o'zida mujassam eta olishi uchun pedagogda, albatta nutq madaniyati va notiqlik san'ati shakllangan va rivojlangan bo'lishi lozim.

Ayrim manbalarda quyidagicha fikr-mulohazalar keltirilgan: "imij yaratish bosqichlarida nutq madaniyati tashqi ko'rinishdan keyingi o'rinda turadi. Biroq tashqi ko'rinish orqali yaratilgan imij vaqtinchalik, shu bilan birgalikda ba'zan aldamchi bo'lishi ham mumkin. Inson haqidagi tasavvurlar asosan verbal usulda, ya'ni nutq va muloqot yordamida shakllanadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyat jarayonida verbal vosita muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchiga ta'lim berish va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning birdan-bir vositasi nutqdir. Bo'lajak pedagoglar

uchun muomala madaniyatini, nutq madaniyatini egallash, ayniqsa zarur bo'lib hisoblanadi[2:5].

Darhaqiqat, o'qituvchi o'zini "taqdim etish" vazifasini o'zi to'g'risidagi ilk taassurot shakllantirayotgan paytda amalga oshirishi maqsadga muvofiq. "Noverbal" deb nomlanadigan imij o'qituvchi imo-ishoralari, yuz-qarashlari, savlatini nazarda tutadigan yoqimli sifatlarini qay darajada ishlata olishi bilan bog'liq. Yaxshi sifatlar turli vaziyatlarga tezkor o'rganishga, odamlar bilan kommunikativ aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Pedagog imijining muhim tomoni esa – "verbal" imij, ya'ni uning so'z boyligidir. Chunki o'qituvchining asosiy quroli yuqorida ta'kidlaganimizdek bu - uning nutqidir.

Qadimgi donishmandlarning ta'kidlashicha, notqlik san'ati – bu so'z bilan ishontirish qobiliyatidir. G'arb donishmandi B.Emirson ham buni tasdiqlab o'tgan: "Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi"[4] degan fikrlarni bildirgan. Demak nutq kishilarni ishontirish san'atidir. Ayni damda imijeologiya insonlarga yoqish san'ati va fani bo'lib, u ming yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda. Imijeologiya deb yuritiladigan ushbu yo'nalish har bir insonni yoqimli, jozibador bo'lish va boshqalarga xush kayfiyat ulashish, yaxshi ko'rinish va aql mutanosibligi orqali yorug'lik ulashishni o'rgatish bilan shug'ullanadi. Demak, imij insonlarni, ya'ni: odam-odamga, odam-tabiati, odam-texnika, odam-badiiy tasvir obrazi kabi ta'sir ko'rsatish texnologiyasi bilan o'z vazifalarini amalga oshirib boradi[3:16].

Fizik olim B.Paskalning fikricha, insonlarga ta'sir ko'rsatishning ikki xil usuli mavjud bo'lib, birinchisi – "ishontirish usuli", ikkinchisi – "yoqish usuli"dir. Ishontirish usuli notqlik bo'lsa, yoqish usuli bu imij yaratishdir. Ulardan qay biri ahamiyatliroq va ishonchliroq, degan savolga har ikkalasining ham inson hayotida muhim o'rni bor, deb ishonch bilan aytishimiz mumkin. Boshqacharoq qilib aytganda, odamlar o'zi yoqtirgan odamga ishonishadi yoki o'zlari ishongan odamlarni yoqtirishadi. Demak, o'zgalarga ta'sir o'tkazishda ishontirish vositasi bo'lgan nutq va imij yaratuvchi vosita bo'lgan yoqtirish biri-birini taqozo etadi. O'qituvchi o'quvchilarni ishontirishi va ularga yoqimli bo'lib ko'rinishi orqali ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkaza oladi.

Pedagogning asosiy quroli bo'lgan nutqdan o'qituvchi unumli foydalanadi. O'quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan pedagog o'z o'quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta'sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozini kuchini, yoqimlilikini bilishi zarur.

So'zimiz yakunida har bir inson qaysi sohaning egasi ekanligidan qat'iy nazar chiroyli va ma'noli so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'z nutqini go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan yetkazishga harakat qilishi kerak. Zero, so'zlash qobiliyatiga ega ekanligi tufayli ham insoniyat koinot gultojiga aylangan.

References:

1. Sitseron. Notqlik san'ati. Toshkent, 2018. 60-b
2. Suyunov O.J., Tashmatov Sh.O'. Notqlik san'ati va nutq madaniyati.
3. Samarqand, 2010. 5-b.
4. Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. 2014. № 2. 16-b
5. <http://www.arxiv.uz>